



2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 11 (1610), 2026-yil 17-yanvar, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



NATIJAGA YO‘NALTIRILGAN DIPLOMATIYA O‘ZBEKISTON TASHQI ALOQALARINING IJOBIY TAJRIBASI

Dunyoda geosiyosiy raqobat so‘nggi yillarda tobora keskinlashib, savdo yo‘nalishlari, transport-logistika zanjirlari va xavfsizlik arxitekturasini tez o‘zgarmoqda. Mana shunday murakkab sharoitda O‘zbekiston tashqi siyosatda faollikni oshirib, amaliy natijaga yo‘naltirilgan diplomatiya modelini izchil shakllantirmoqda. Bu jarayon 15-yanvar kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida Tashqi ishlar vazirligi hamda xorijdagi diplomatik vakolatxonalar faoliyatiga bag‘ishlangan yig‘ilishda yanada aniq vazifa va mezonlar bilan mustahkamlandi.

Ijoiy tendensiyalarning eng ko‘zga ko‘rinadigan jihati — tashqi aloqalar infratuzilmasining kengayishidir. 2017-yildan buyon xorijda yangi diplomatik va konsullik vakolatxonalari ochilib, ularning soni 60 taga, diplomatik aloqa o‘rnatilgan davlatlar soni esa 165 taga yetgani qayd etildi. Bu, avvalo, O‘zbekistonning turli mintaqalarda doimiy muloqot kanallarini kuchaytirayotgani va

hamkorlikni tizimli yo‘lga qo‘yayotganini anglatadi. Bunday tarmoqning kengayishi tashqi siyosatni “bir martalik tashriflar diplomatiyasi”dan chiqarib, savdo, investitsiya, texnologiya, ta‘lim, turizm va migratsiya kabi yo‘nalishlarda uzluksiz ishlaydigan amaliy mexanizmga aylantiradi.

Davomi 2-betda



Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

Suv — ulug‘ ne‘mat, tiriklik manbai. Xalqimiz azaldan suvni e‘zozlab kelgan, har bir tomchisini hatto tilloga tenglagan. “Suv — bebaho boylik”, “Suv — zar, suvchi — zargar”, “Suv keltirgan elda aziz” kabi maqollar buning tasdiq‘idir.

QAT’IY TARTIB VA INTIZOM — MUVAFFAQIYAT GAROVI



Amudaryo va Sirdaryo havzasida joylashgan mamlakatimizda suvchilarning mashaaqatli xizmati evaziga dalalarga obihayot yetkazib berilib, ekinlardan mo‘l hosil olinmoqda. Bozorlarimiz yilning to‘rt faslida ham to‘kin, dasturxonlarimiz noz-ne‘matlarga to‘la, turmushimiz yildan yilga farovonlashib bormoqda.

Prezidentimiz tashabbusi bilan suv xo‘jaligi sohasini kompleks rivojlantirish, suv resurslaridan oqilona foydalanish, jumladan, raqamli va suv tejovchi sug‘orish texnologiyalarini keng joriy etishga alohida e‘tibor qaratilib, bu borada ulkan natijalarga erishilmoqda.

Suv xo‘jaligi sohasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan belgilangan prognoz ko‘rsatkichlar hamda indikatorlar ijrosini ta‘minlash, ko‘zlangan maqsadlar yuzasidan natijadorlik va samaradorlikka erishish negizida o‘z ishiga muhabbat, vatanparvarlik, fidoyilik, sadoqat, qat’iy intizom, yuksak mas’uliyat kabi sifatlar turibdi.

Sohada mehnat qilayotgan ishchi-xizmatchilar, miroblar, mashinist, ekskavatorchi va buldozerchilar, barcha xodimlarning hayoti darajasi va sifatini oshirish borasidagi islohotlar natijadorligi bevosita ularni amalga oshirishga qaratilgan hujjatlar va qarorlarni ijro etish bo‘yicha intizomning qat’iyligiga bog‘liq.

Davomi 3-betda



Bunyodkorlik



KO‘P QAVATLI UYLAR QURILISHIDA O‘SISH KATTA

Ularga xizmat ko‘rsatish

SIFATI-CHI?



Dunyoning eng tez taraqqiy etgan mamlakatlaridan biri — Singapurda “oltin to‘rtlik qoidasi” ijtimoiy modeli, an‘anasi mavjud. Unga ko‘ra, inson baxtli bo‘lishi uchun bitta uy, bitta mashina, bitta ish, bitta oilaning o‘zi kifoya. Aynan “oltin to‘rtlik qoidasi” rasmiy qonun hujjati sifatida mavjud bo‘lmasa-da, insonlarni ayni shu davlat siyosatiga yo‘naltiradigan, barqaror va intizomli hayot modeliga moslashtirishga xizmat qiladigan bir qator hujjatlar bor. Jumladan, uy-joy bilan ta‘minlash borasida Housing & Development Board (HDB), “Build-to-Order” (BTO) tizimlari, oilani himoya qilish Women’s Charter qonuni, mashinaga ega bo‘lish borasida Certificate of Entitlement (COE) tizimi joriy etilgan.

Aslini olganda, ushbu qoida faqatgina singapurliklar emas, o‘zbekistonliklar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Aksariyat yurtdoshlarimizdan “O‘zingizni

to‘laonli baxtli his qilishingiz uchun nima kerak?” deya so‘rasangiz, “O‘z uyim, o‘g‘il-qiz farzandlarim bo‘lsa, yana bitta mashina olsam. Menga boshqa narsa kerak

emas”, deya javob beradi odatda. Ularning orasida, ayniqsa, o‘z uyiga ega bo‘lish katta ahamiyatga ega.

Davomi 2-betda



Bugunning gapi

Axborot texnologiyalari asrida raqamlashtirish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli texnologiyalar jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olayotgan hozirgi davrda ayollarning raqamli savodxonligi global miqyosda ustuvor masalaga aylandi.

100 MING XOTIN-QIZ ZAMONAVIY KASBGA TAYYORLANADI

Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Banki va Xalqaro telekommunikatsiyalar birlashmasi kabi xalqaro tashkilotlar ayollarning raqamli dunyoga teng huquqli kirishini ta‘minlashni barqaror rivojlanish maqsadlarining ajralmas qismi sifatida ko‘rmogda. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, dunyo bo‘yicha 259 million ayol internetdan foydalanish imkoniyatiga ega emas, bu esa ularning ta‘lim, bandlik va raqamli xizmatlardan foydalanishini cheklaydi. Ularning raqamli savodxonligini oshirish nafaqat gender tengligini ta‘minlaydi, balki global miqyosda iqtisodiy o‘rinish, innovatsiyalar va ijtimoiy inklyuziyani jadallashtirishga xizmat qiladi. Shu bois, ayollarning raqamli ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zamonaviy jamiyatlar uchun strategik ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Raqamlashtirish sharoitida gender tengligini ta‘minlash juda muhim, bu jarayon jamiyatda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy notenglikni kamaytirish uchun imkoniyat yaratadi. O‘zbekistonda xotin-qizlarning sifati ta‘lim, ilm-fan, raqamli texnologiyalardan foydalanishini ta‘minlash va innovatsion faoliyatdagi ishtirokini kengaytirish doimiy e‘tibor markazidagi masalalardan.

Davomi 3-betda



YANGI O‘ZBEKISTON: INSON HUQUQLARI — 2025-YIL YAKUNLARI VA ISTIQBOLLAR

Mamlakatimizda 2025-yilda yuz bergan olamshumul yangilanishlaru eng muhim voqealarning tub mazmun-mohiyatiga nazar solar ekanmiz, turli sohalarida erishilgan yutuqlar hamda zabt etilgan marralar shukuhidan ruhimiz taskin topib, dilimiz ravshanlashadi, tilimizda shukronalik kalimasi aylanadi.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, xalqimiz uchun munosib turmush darajasini ta’minlash, mustahkam huquqiy tizim va ochiq jamiyat barpo etish yo‘lidagi keng ko‘lamli islohotlarimiz dunyo jamoatchiligi tomonidan e’tirof etilmoqda. Masalan, 2025-yilda Barqaror rivojlanish maqsadlari indeksida O‘zbekiston 19 pog‘ona yuqori ko‘tarilib, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida eng jadal rivojlanayotgan mamlakat sifatida qayd etildi”.

Zamonaviy sivilizatsiyaning ustuvor mezon

Prezidentimiz 2025-yil sentabrda Nyu-Yorkda bo‘lib o‘tgan BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasida nutq so‘zladi. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “Yangi O‘zbekiston barcha davlatlar bilan o‘zaro hamjihatlik, ochiq muloqot va yaqin sheriklik tarafdoridir. Biz xalqlar, madaniyatlar va sivilizatsiyalar o‘rtasidagi muloqotni mustahkamlash, umumbashariy maqsadlarni ro‘yobga chiqarish yo‘lida o‘z hissamizni qo‘shishga doim tayyormiz”.

Davomi 4-betda

19-yanvar – Mahmudxo‘ja Behbudiy
tug‘ilgan kun

SUN’IY AQL:

JADID QALBIDAN CHIQQAN

ILK HAYQIRIQ

6



NATIJAGA YO'NALTIRILGAN DIPLOMATIYA

O'ZBEKISTON TASHQI ALOQALARINING IJOBIY TAJRIBASI

Boshlanishi 1-betda

Yig'ilishda davlatimiz rahbari tomonidan muhim yondashuv qat'iy belgilab berildi: elchi faqat siyosiy muloqot yurituvchi shaxs emas, balki investitsiya va texnologiyani jalb etadigan, yangi eksport bozorlarini ochadigan, logistika yo'laklarini ishga soladigan, turistlar oqimini oshiradigan hamda fuqarolar huquqini himoya qiladigan davlat vakili sifatida ishlashi kerak.

Shu nuqtayi nazardan, elchilar faoliyatini KPI asosida baholash tamoyili ilgari surildi. Xususan, elchi ishlayotgan davlatdan eksport tushumlari, turistlar oqimi va qonuniy mehnat migratsiyasi ko'rsatkichlari asosiy mezon sifatida belgilanishi qayd etildi. Bu mexanizm, bir tomondan, mas'uliyatni oshiradi, ya'ni "Qaysi elchixonaga qaysi yo'nalishda qanday natija qildi?" degan savolga aniq javob topib beradi. Ikkinchi tomondan, tarmoqlar koordinatsiyasini kuchaytiradi, ya'ni "elchi — vazirlik — hudud — biznes" zanjiri bir maqsad atrofida bog'lanadi.

Shu bilan birga, aniq investitsiya yoki eksport loyihasini yakuniga yetkazgan elchilarni moddiy rag'batlantirish amaliyoti joriy etilishi ta'kidlandi. Bu diplomatiyada loyiha asosida ishlash madaniyatini kuchaytiradi.

So'nggi yillar tashqi siyosatining eng ko'rinadigan natijasi iqtisodiy ko'rsatkichlarda aks etmoqda. 2025-yilda ikki va ko'p tomonlama tadbirlar doirasida umumiy qiymati 160 milliard dollarlik investitsiya loyihalari va savdo bitimlari imzolangani, tashqi savdo aylanmasi 80 milliard dollardan oshgani, eksport 33,5 milliard dollarga yetgani va xorijiy investitsiyalar 43 milliard dollardan oshgani keltirildi.

Bu ko'rsatkichlar tashqi siyosatning iqtisodiyotga bevosita qiymat yaratish qobiliyatini o'rganini anglatadi. Endilikda iqtisodiy diplomatiya alohida yo'nalish emas, balki barqaror taraqqiyot va iqtisodiy xavfsizlikning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda.

Global vaziyat ta'sirida logistika xarajatlarining oshishi milliy mahsulotlar raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir qilmoqda. Yevropa bozorlariga yuk tashish xarajatlari qariyb ikki baravar oshgani qayd etilib, Polsha Yevropa yo'nalishida muhim "logistika darvozasi" sifatida e'tirof etildi. Brest chegarasi punktida o'zbekistonlik yuk tashuvchilar uchun alohida yo'lak ochish masalasini kelishish vazifasi qo'yildi.

Bu yerda muhim nuqta shundaki, tashqi siyosat endilikda faqat shartnomalar



Odiljon MAMATKARIMOV,
Oliy Majlis Senati a'zosi

imzolashni emas, balki tranzit, yo'lak, xab va savdo uylari orqali eksportning real infratuzilmasini barpo etishga o'tayotganini ko'rsatmoqda. Shu ma'noda, Prezidentimiz Ruminianing Konstans shahrida savdo uyini tashkil etish va 2026-yilda eksportni ikki baravar oshirish bo'yicha ham vazifalar belgilab berdi.

Shuningdek, to'qimachilik kabi tarmoqlarda "maqsadli davlatlar" ro'yxati ham aniqlashtirildi. 90 milliard dollarlik to'qimachilik mahsulotlarini import qiladigan yirik bozorlarda vakolatxonalar faoliyatini kuchaytirish, 15 ta xorijiy sorsing kompaniya va brendni olib kelish, 100 ta mahalliy korxonaga xalqaro standartlarni joriy qilish vazifalari belgilandi.



Dolzarb mavzu

Yig'ilishda turizmga ham alohida e'tibor qaratildi. 2025-yilda O'zbekistonga kelgan xorijiy turistlar soni 11,5 millionga yetgani, turizm eksporti 4,7 milliard dollar bo'lgani ta'kidlanib, 2030-yilgacha turistlar oqimini 20 millionga yetkazish maqsadi belgilandi.



Prezidentimiz tomonidan Afrika qit'asi yangi eksport yo'nalishi sifatida alohida tilga olindi. Ko'p davlatli, katta bozor sig'imiga

ega mintaqada savdo-iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish uchun "yo'l xaritasi" ishlab chiqish — eksport diversifikatsiyasining strategik yechimi sifatida ko'rinadi. Qayd etish lozimki, bu masala, ayniqsa, an'anaviy bozorlardagi tavakkalchilik ortib borayotgan davrda juda muhim hisoblanadi.

E'tirof etish kerak, so'nggi yillarda tashqi siyosat faqat davlat munosabatini emas, balki fuqaro manfaatini himoya qilish bilan o'lchanadigan bosqichga kirdi. Yig'ilishda xorijda turli reydlar chog'ida fuqarolar huquqlari buzilishi jamoatchilikda jiddiy norozilik uyg'otayotgani ta'kidlanib, elchi va konsullar har bir holat bo'yicha malakali

yuridik yordam ko'rsatishi shartligi aytiladi. Davlatimiz rahbari tomonidan "Kabinet diplomatiyasi"dan voz kechib, vatandoshlar bilan joylarda ishlash talabi qo'yildi.

Qonuniy mehnat migratsiyasi yo'nalishida ham amaliy vazifalar berildi. Xususan, Shvetsiya, Daniya va Norvegiyada ishchi kuchiga ehtiyoj katta ekani, o'qitish va sertifikatlash mexanizmlaridan foydalanib, ushbu mamlakatlar bilan hamkorlik dasturini ishlab chiqish zarurligi ta'kidlandi. Bu yondashuv migratsiyaga muammo sifatida emas, balki to'g'ri boshqarilsa, yuqori daromadli ish o'rinlari, kasbiy malaka va til tayyorgarligi orqali ijtimoiy barqarorlikka

xizmat qiluvchi imkoniyat sifatida qarashni anglatadi.

Yig'ilishda turizmga ham alohida e'tibor qaratildi. 2025-yilda O'zbekistonga kelgan xorijiy turistlar soni 11,5 millionga yetgani, turizm eksporti 4,7 milliard dollar bo'lgani ta'kidlanib, 2030-yilgacha turistlar oqimini 20 millionga yetkazish maqsadi belgilandi.

Bu yo'nalishda elchilarga Turizm qo'mitasi bilan yangicha yondashuv asosida ishlash, yirik outsorsing kompaniyalarni jalb etish vazifasi qo'yildi. Ayrim davlatlarda elchixonalarda turizm va madaniyat bo'yicha maslahatchi lavozimlari joriy etilishi esa mamlakat imijini, madaniy targ'ibot va iqtisodiy samarani bir nuqtada uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

Yig'ilishning uzoq muddatli ahamiyatga ega jihatlaridan biri — O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosat faoliyati konsepsiyasini yangilash tashabbusidir. Yangi konsepsiya mamlakatning strategik maqsadlari va ichki islohotlar mantig'ini, iqtisodiy diplomatiya bilan birga xavfsizlik, investitsiya, eksport, transport-logistika, suv va iqlim kabi milliy manfaatlarni o'zaro bog'liq holda aks ettirishi zarurligi ta'kidlandi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda O'zbekistonning ochiq va pragmatik tashqi siyosati hamkorlik geografiyasini kengaytirdi, iqtisodiy samaradorlikni oshirdi va tashqi diplomatiyani hayotiy natijalar bilan bog'lash yo'lida muhim qadamlarni ta'minladi. Endi asosiy vazifa — mavjud yutuqlarni institutsional natija tizimiga aylantirishdir. Ishonamizki, KPI asosida baholash, loyihaga bog'langan rag'bat, logistika va eksportda aniq "hududiy — tarmoq — elchixonaga" koordinatsiyasi, fuqarolar huquqi va qonuniy migratsiyaga e'tibor, turizm va imij siyosati — bularning barchasi tashqi siyosatni real iqtisodiy va ijtimoiy samaraga bog'laydigan yangi modelning ustunlari bo'ladi. Bu esa O'zbekistonning tashqi siyosatini milliy manfaatlarni xalqaro maydonida qat'iy va amaliy himoya qiladigan zamonaviy diplomatiya maktabi sifatida yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.



Bunyodkorlik

Boshlanishi 1-betda

Shu bois, mamlakatimizda to'qqiz yil oldin boshlangan oqartaymas islohotlardan biri aynan shu — uy-joy qurish, uni sotish va sotib olish tizimini o'zgartirish bo'ldi. Keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari olib borilib, zamonaviy ko'p qavatli uylardan iborat, o'ziga xos infratuzilmasiga ega "Yangi O'zbekiston" massivlari bunyod etildi. O'tgan davr mobaynida bu tarmoq takomillashib bordi, yil sayin bunyodkorlik shiddati kuchaysa kuchaydiki, kamaymadi.

Prezidentimiz Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida bu boradagi ishlar 2026-yil yangi bosqichga ko'tarilishini ta'kidladi. Jumladan, o'tgan yilda aholiga 8 million 100 ming kvadrat metrl, 135 ming xonadondan iborat ko'p qavatli uylar topshirildi. Umuman, so'nggi to'qqiz yilda 210 million kvadrat metrl turar va noturar joy obyektlari foydalanishga topshirildi. Bu ko'rsatkichlar yanada ko'tarilishi nazarda tutilgan.

Aholi ehtiyojidan kelib chiqqan holda, ko'p qavatli turar joylar ko'paygani yaxshi, ammo ko'p kvartirali uylarni boshqarish sohasini ham shunga mos takomillashtirish, faoliyatini yanada jadallashtirish zarur.

Prezidentimiz shu yil 14-yanvar kuni ko'p kvartirali uy-joy fondini boshqarish tizimini takomillashtirish va aholiga sifati xizmat ko'rsatishni ta'minlashga qaratilgan takliflar taqdimoti bilan tanishdi. Yig'ilishda sohada muammolar va ularning oqilona yechimi to'g'risida so'z bordi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 44 mingdan ziyod ko'p kvartirali uyda 7,1 million aholi istiqomat qiladi. Ulariga 900 dan ortiq boshqaruv servis kompaniyalari va 200 dan ortiq shirkatlar xizmat qiladi. Shuningdek, 856 ta uyda o'zini o'zi boshqarish tizimi joriy etilgan. Boshqaruv servis kompaniyalari faoliyati barqarorligi va samaradorligini ta'minlashda xizmatlar sifatini oshirish, qo'shimcha servis turlarini joriy etish dolzarb ahamiyatga ega.

Qayd etilganidek, boshqaruv kompaniyalarining aksariyati majburiy badal hisobidan faoliyat yuritmoqda, ularning



faoliyatiga investitsiya kiritishga tayyor tadbirkorlar kam. Shuningdek, ekspertlarning dastlabki hisob-kitoblariga ko'ra, yirik shahar va viloyat markazlarida boshqaruv servis kompaniyalarining yashirin daromadlari rasmiy tushumlardan kamida ikki barobar ko'p.

Bularning barchasi sohaga daromad keltiradigan yangi model ishlab chiqish zarurligini isbotlab turibdi. Shuningdek, tarmoqni raqamlashtirish, sun'iy intellektidan foydalanish samaradorligini orttirish ham bugungi davr talabi. Shu

munosabat bilan 2026-yil 1-iyuldan 2030-yil 1-yanvargacha Toshkent shahrida ko'p kvartirali uy-joylarni boshqarishning klaster tizimini huquqiy eksperiment sifatida joriy etish taklif qilindi.

Unga ko'ra, uylar holati tahlil qilinib, "yashil, "sariq" va "qizil" toifalarga ajratiladi, kamida 7 ming xonadondan iborat lotlar shakllantiriladi hamda 5 yillik rivojlanish dasturlari ishlab chiqiladi. Lotlar va master-rejalar tuman kengashlari tomonidan tasdiqlanadi, boshqaruvchi tashkilotlar esa "Mening uyim"

tizimi orqali mulkdorlar tomonidan ovoz berish yo'li bilan tanlanadi.

Bu, o'z navbatida, aholi vakillarining uylariga xizmat ko'rsatish kompaniyalari faoliyatini onlayn kuzatib borishi va ularning samarador faoliyatiga ko'ra ovoz berish orqali tanlay olishi imkonini beradi. Natijada esa kompaniyalar o'tirasidagi raqobat yanada kuchayadi.

Kompaniyalar uchun talablarning oshirilishi ko'p qavatli uylarga xizmat ko'rsatishda professionallikni talab qiladi. Xususan, bunday kompaniyalar kamida o'z mablag'i, moddiy-texnik bazasi, 24/7 dispetcherlik xizmatiga ega bo'lishi shart.

Faqtgina talab emas, bunday tashkilotlarga rag'bat va qo'shimcha daromad topishi uchun imkoniyat ham berilmoqda. Jumladan, hududda tashkilotlarga maishiy xizmat markazlarini tashkil etish, yengil konstruksiyali qurilmalarni barpo etish va ularning uzoq muddatli foydalanish imkoniyatlari yaratilishi ko'zda tutilgan.

Yig'ilishda yana bir masala — sohani raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishga alohida e'tibor qaratildi. Avvalo, boshqaruv servis kompaniyalarining dispetcherlik xizmatlarida sun'iy intellekt asosida ishlaydigan tizimlar joriy qilinishi, murojaatlar bilan ishlash va xizmat ko'rsatish tezligi oshirilishi kerakligi qayd etildi.

Sohadagi ushbu yangilanish va islohotlar nazoratini olib borish tizimi takomillashtirilishi ham ko'zda tutilgan. Jumladan, faoliyatida shaffoflikni ta'minlamagan kompaniyalar faoliyati vaqtinchalik yoki butunlay to'xtatiladi.



boshqaruvchi tashkilot elektron reyestrda chiqarib tashlanadi. "Mening uyim" axborot tizimi orqali umumiy yig'ilishni tashabbus qilish, muhokama o'tkazish, qaror qabul qilish, shartnoma tuzish, hisobot taqdim etish hamda murojaatlarni yuborish va ko'rib chiqish imkoniyatlari to'liq yo'lga qo'yiladi.

Ko'p kvartirali uyni foydalanishga qabul qilishda kadastr pasporti rasmiylashtirilib, u "Turar joy" tizimida avtomatik aks etishi, o'matilgan quyosh panellari esa umumiy mol-mulk sifatida boshqarish organiga topshirilishi shart etib belgilandi. Ushbu talablar bajarilmagan taqdirda uy foydalanishga qabul qilinmaydi.

2026-2030-yillarda sohada institutsional islohotlarni davom ettirib, hokimliklar huzurida uy-joy kommunal sohasini nazorat qiluvchi hududiy inspeksiyalar tashkil etish, ularning byudjetdan tashqari jamg'armalarni shakllantirish, hokimning uy-joy kommunal xo'jaligi bo'yicha o'rinsosari lavozimini joriy etilishi rejalashtirilmoqda.

Albatta, bu o'zgarishlar mahallalarimizning yanada obod bo'lishi, aholi yashash sharoiti yaxshilanishi, atrof-muhit ko'kalamzorlashtirilib, yanada chiroy ochishi yo'lida xizmat qilishi bor gap. Ayniqsa, aholi farovonligini oshirish, odamlarni rozi qilishda muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz.


Sanjar ESHMURODOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri





Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

QAT’IY TARTIB VA INTIZOM — MUVAFFAQIYAT GAROVI



Shavkat HAMROYEV,
suv xo‘jaligi vaziri

Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbari ijro intizomi yo‘nalishida mustahkam tizim yaratish, tartib o‘rnatish, temir intizomni joyiga qo‘yish, rahbarlar va xodimlarning dunyoqarashini o‘zgartirishni asosiy vazifa sifatida belgilab bergan. Shu maqsadda vazirlik markaziy apparatida hamda uning tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlarida ijro intizomiga rioya etilishi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbari va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosi davlatimiz rahbarining 2025-yil 25-iyuldagi “Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, juma kunlari vazirning ijro intizomiga mas‘ul o‘rinbosari, dushanba kunlari vazir huzurida hamda har oy yakuni bilan vazirlikning hay‘at yig‘ilishlarida, shuningdek, har dushanba va payshanba

kunlari O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining maslahatchisi huzurida muntazam ravishda tanqidiy ruhda muhokama qilinib, uning ijrosini belgilangan muddatlarda, to‘liq va sifatli ta‘minlash bo‘yicha zarur choralar ko‘rib borilmoqda.

Vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan har oyda kalendar-reja hamda “yo‘l xaritalari” ishlab chiqilib, ijro uchun barcha darajadagi rahbar va mas‘ul xodimlarga yetkazilmoqda. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbari va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari ijrosini belgilangan muddatlarda, to‘laqonli va sifatli ta‘minlash, qat’iy tartib, intizom va tizimli nazorat o‘rnatish maqsadida vazirlikda respublika shtabi tashkil etilgan.

Respublika shtabining yig‘ilishi haftasiga kamida ikki marotaba ZOOM platformasi orqali videokonferensaloqa shaklida o‘tkazilib, unda vazirning barcha o‘rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo‘lim boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlari ishtirok etmoqda.

Bundan tashqari, ijro intizomini yanada



mustahkamlash maqsadida har oyda bir marotaba ZOOM platformasi orqali videokonferensaloqa shaklida o‘quv-amaliy seminarlar tashkil etilib, vazirlikning tizim tashkilotlarida ijro intizomiga mas‘ul tarkibiy bo‘linma rahbarlari hamda mutaxassislarining bilimi va ko‘nikmaci oshirilmoqda.

Topshiriqlar ijrosini nazorat qilishning eng muhim vositasi jamoatchilik ishtiroki va tartib-intizomdir. Shu bois, vazirlik huzuridagi jamoatchilik kengashi tomonidan “jamoatchilik eshituvi”, “jamoatchilik monitoringi” tizimi joriy qilinib, bu jarayonga fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolar faol jalb etilmoqda.

2025-yilda vazirlik tomonidan jami 2658 ta (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2058 ta, Prezident Administratsiyasi rahbarining 88 ta, Vazirlar Mahkamasining 512 ta) topshiriq ijrosi to‘liq ta‘minlangan.

Ijro intizomi sohasida faoliyatimiz davomida chiqargan asosiy xulosamiz shuki, ijro intizomi yangi O‘zbekistondagi keng qamrovli islohotlarning talabi, bugungi o‘zgarishlarning asosidir. Shu bois, suv xo‘jaligi sohasiga oid topshiriqlar ijrosini ta‘minlashda barcha darajadagi rahbar va mutaxassislarining bilimi va ko‘nikmasini, tartib-intizomga qat’iy rioya etgan holda shaxsiy mas‘uliyatini doimiy oshirib borish ustuvor vazifa.

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 28-apreldagi tegishli qarori bilan tasdiqlangan suv xo‘jaligi vaziri va o‘rinbosarlarining 2025-yilga belgilangan faoliyati samaradorligi

hamda maqsadli ko‘rsatkichlarga erishilishini ta‘minlash borasida muayyan ishlar qilindi. Xususan, suv xo‘jaligi vaziri va o‘rinbosarlarining 2025-yil uchun belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlari quyi, o‘rta va yuqori bo‘g‘inlar kesimida tahlil qilinib, har chorak yakuni bo‘yicha vazirlikning hay‘at yig‘ilishlarida muhokama qilindi. Natijada suv resurslarini boshqarish sohasida qator samaradorlikka erishildi. Jumladan:

— qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun respublika bo‘yicha 40,2 milliard kub metr suv yetkazib berildi;

— irrigatsiya tarmoqlari hamda nasos stansiyalari va sug‘orish quduqlarini davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida tadbirkorlik subyektlariga foydalanishga berish bo‘yicha 1397 ta loyiha amalga oshirildi;

— investitsiya dasturi doirasida 121,5 million dollarlik xorijiy investitsiya o‘zlashtirildi;

— davlat budgetidan ajratilgan 1227 milliard so‘m hisobidan 500 kilometr irrigatsiya tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari bajarildi;

— 148,4 kilometr uzunlikdagi sug‘orish tarmoqlari tozalandi hamda 294 ta gidroteknika inshooti, 651 ta gidropost va 25,4 kilometr kanal dambasi ta‘mirlandi;

— tizimdagi tashkilotlar hisobidagi 6094 ta gidropost pasporti rasmiylashtirildi, 704 ta suv o‘lchash vositasi (vertushka) taritrovka va qiyoslash ko‘rigidan hamda 1345 ta gidropost attestatsiyadan o‘tkazildi.

Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining 679 ming gektarida suvni tejaydigan texnologiyalar joriy qilindi. Paxta

xomashyosini yetishtirishda tomchilatib sug‘orish texnologiyasini qo‘llagan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarga 290 milliard so‘m subsidiya ajratildi.

Suv xo‘jaligi obyektlari foydalanuvdagi 90 ming gektar yer davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi. Vazirlik tizimidagi nasos stansiyalarida 150 ta eskirgan nasos agregati yangisiga almashtirildi. Shuningdek, suv xo‘jaligi inshootlarida real vaqt rejimida suvni nazorat qilish va hisobini yuritish imkonini beruvchi 2602 ta “aqlli” suv qurilmasi o‘rnatildi.

Bundan tashqari, 12 ta suv xo‘jaligi obyekti avtomatlashtirilgan boshqaruvga o‘tkazilib, umumiy raqamlashtirilganlik darajasi 73 foizga yetkazildi. Suv omborlari va boshqa yirik suv xo‘jaligi inshootlarida 7 ta nazorat-o‘lchash uskunasi hamda xabar berish tizimlarini modernizatsiya qilish, tiklash va yangilash ishlari bajarildi.

Sohaga oid 36 ta ilmiy tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishi amalga oshirildi, ilmiy asoslangan uslubiy qo‘llanma va tavsiyalar ishlab chiqildi hamda dalal sharoitida suvni o‘lchash bo‘yicha 350 ta o‘quv-seminar tashkil etildi.

Suv resurslarini boshqarish, hisobini yuritish, gidroteknika inshootlari va nasos stansiyalaridan foydalanish bo‘yicha suv xo‘jaligining 2000 nafar xodimi malakasi oshirildi. Suv resurslarini samarali boshqarish, suvni tejaydigan va raqamli texnologiyalarni joriy qilish, irrigatsiya tadbirlarini amalga oshirish, yerni lazerli tekislash, agrotexnika tadbirlarini o‘tkazish hisobidan yillik 10 milliard kub metr suv tejashiga erishildi.

“Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida 886 ta obyektlar bo‘yicha umumiy qiymati 1,2 trillion so‘m bo‘lgan 1850 kilometr sug‘orish tarmog‘i betonlashtirildi, 202,1 kilometr lotok tarmog‘i, 385,2 kilometr quvur, 840 ta sug‘orish qudug‘i qurildi hamda 436 ta nasos agregati o‘rnatildi. Natijada 494,3 mingta xonadonda istiqomat qiladigan aholining 321 ming gektar tomorqa maydonida suv ta‘minoti yaxshilandi.

Davlatimiz rahbari 2025-yil 23-sentyabr kuni Nyu-Yorkda bo‘lib o‘tgan BMT Bosh Assambleyasining 80-yubiley sessiyasida suv resurslari taqchilligi muammosiga to‘xtalar ekan, O‘zbekistonda Suvni tejash bo‘yicha butunjahon forumini o‘tkazish rejalashtirilgani, mazkur anjuman yakunlari bo‘yicha Suv inqirozini barqaror taraqqiyot uchun jiddiy tahdid sifatida belgilash va bu borada global darajada innovation texnologiyalarni joriy etish uchun alohida “yo‘l xaritasi”ni qabul qilish lozimligini ta‘kidladi.

Bugun respublikamiz bo‘yicha 2,6 million gektar maydonda suv tejovchi texnologiyalar joriy qilinib, ularning umumiy ko‘rsatkichi sug‘oriladigan yer maydonlariga nisbatan qariyb 60 foizga yetkazildi.

O‘tgan yili O‘zbekiston Respublikasi Suv kodeksi qabul qilindi. Kodeks bilan suv munosabatlari sohasida mamlakatimizdagi asosiy huquqiy hujjatlari tizimlashtirildi. “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi qonun, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 8 ta farmoni va 14 ta qarori hamda hukumatning 26 ta qaroridagi normalar birlashtirildi.

Yangi kodeks suv, suv obyektlari, suv xo‘jaligi obyektlari va suv fondi yerlaridan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruv akademiyasi hamda Strategik islohotlar agentligi bilan hamkorlikda vazirlik markaziy apparati, vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari, o‘rta va quyi bo‘g‘in tizim tashkilotlari rahbarlari hamda barcha mutaxassislari ishtirokida Suv xo‘jaligi vazirligining ZOOM platformasi orqali videokonferensaloqa shaklida iqtisodiy o‘quv o‘tkazilib, davlatimiz rahbarining Oliy Majlisi va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasidan kelib chiqib, vazirlik tomonidan amalga oshiriladigan vazifalar ijrosini ta‘minlash yuzasidan barcha darajadagi rahbar-xodimlarning shaxsiy mas‘uliyati va javobgarligi belgilandi.

Murojaatnomada beshinchi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan ekologik muvozanatni ta‘minlash, “yashil” energetika va suv resurslaridan oqilona foydalanish borasida davlatimiz rahbari bildirgan takliflar asosida “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi bilan vazirlikka 4 ta asosiy yo‘nalish: suvdan oqilona foydalanish madaniyatini va suv ishlatish samaradorligini oshirish, qishloq xo‘jaligi sohasida suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta‘minlash, irrigatsiya tizimi va suv tejovchi texnologiyalarni rivojlantirish, soha boshqaruviga xususiy sektor va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini hamda “yashil” energiya texnologiyalarini keng joriy qilish doirasida nasos stansiyalarining elektr energiyasi iste‘molini kamaytirish bo‘yicha yuklatilgan vazifalar qaytadan ko‘rib chiqilib, yangi marralar belgilandi.

Xalqimiz farovonligi yo‘lida xizmat qilishni o‘zining egzu amali va kasbiy burchi deb bilgan suv xo‘jaligi xodimlari uchun ijro intizomi — ish samaradorligini ta‘minlovchi eng muhim hamda asosiy faoliyat mezonlaridan biri. Shu bois, soha xodimlari davlatimiz rahbari, Prezident Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosini belgilangan muddatlarda, to‘laqonli va sifatli ta‘minlash bo‘yicha sadoqat, fidoyilik, qat’iyat va talabchanlik asosida ishlarni davom ettirmoqda.

Bugunning gapi



Rasulbek HOJIYEV,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti
katta ilmiy xodimi

Boshlanishi 1-betda

Xususan, Prezidentimiz Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini qayta ko‘rib chiqish, yurtimizning kelgusi besh yillik taraqqiyotiga daxldor bo‘lgan ushbu hujjat keng jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilib, aholimizning fikr-mulohazalari asosida takomillashtirilishi lozimligi xususida alohida ta‘kidladi. Shu munosabat bilan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining 25 maqsadida “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan faol foydalanishga jalb etilgan xotin-qizlar sonini har yili 100 ming (jami 500 ming) nafarga oshirish” vazifasi belgilanayotgani o‘zbek ayollarining raqamli savodxonligini oshirish borasida tashlanayotgan ulkan qadamlardan bo‘ldi,

100 MING XOTIN-QIZ ZAMONAVIY KASBGA TAYYORLANADI

desak adashmagan bo‘lamiz. Zero, amaldagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi ushbu ko‘rsatkichni o‘z ichiga qamrab olmagan edi.

Mazkur indikatorning yangilanayotgan strategiya loyihasida aks etishi jamiyatda ayollarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiyotning yangi, zamonaviy tarmoqlaridagi o‘rmini yanada oshirishni nazarda tutadi. Fikrimizcha, yangilanayotgan strategiyaga binoan raqamli makonda ayollarning rolini oshirish orqali mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishimiz mumkin. Xususan, birinchidan, raqamli iqtisodiyot sharoitida xotin-qizlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasini oshirish ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

Ikkinchidan, xotin-qizlarning raqamli savodxonligi ularni masofaviy bandlik, tadbirkorlik va innovatsion faoliyatga keng jalb etish imkonini beradi.

Uchinchidan, ijtimoiy tenglikni ta‘minlash, axborotga teng kirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda gender tafovutini qisqartirishda muhim omil hisoblanadi. Mamlakatimizda xotin-qizlarni AT sohasiga yanada kengroq jalb qilish va ularni axborot texnologiyalari bo‘yicha o‘qitish maqsadida bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Bular jumlasiga “GAP” Women IT Union” loyihasi doirasida tashkil qilingan ayollar “GAP” AT-klubini kiritish mumkin. Klubning vazifasi



USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ
TILIDA HAM O‘QISH
UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!



ayollarni qo‘llab-quvvatlash, ularning AT sohasidagi savodxonligini oshirish hamda mazkur yo‘nalishda o‘qitish va ishga joylashtirish imkoniyatini yaratishdan iborat. Maqsad esa AT sohasida ayollar tanqisligi muammosini

hal qilish, AT kasblarini ayollar va yosh qizlar uchun ochiq va qiziqarli qilish, shu orqali mazkur sohadagi gender tafovutini kamaytirishdan iborat.

Shuningdek, “IT Women Uz” loyihasi xotin-qizlarning axborot texnologiyalari sohasidagi faolligi, elektron tadbirkorlik va kompyuter savodxonligini oshirishga qaratilgan.

Loyiha doirasida ijtimoiy daftarlarga kiritilgan va kam ta‘minlangan oilalardagi 12 yoshdan 35 yoshgacha xotin-qizlar uchun kompyuter savodxonligi va tadbirkorlik yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv kurslari tashkil etiladi,

o‘quv kurslarni muvaffaqiyatli yakunlagan xotin-qizlarga sertifikatlar beriladi.

Bundan tashqari, O‘zbekistonda ayollarni texnologiya bilan ishlashda rag‘batlantirish bo‘yicha “Women in Tech” (WIT) xalqaro tarmog‘i ishga tushirilgan. Tarmoq har yili xalqaro mukofotlar va sammitlarni tashkil qiladi. WIT ayollar hamjamiyati barcha xotin-qizlar uchun ochiq, unda ishtirok etish bepul.

Bugungi kunda xotin-qizlar blogerlik maqomi ostida ijtimoiy tarmoqlarga turli mavzudagi axborotlarni joylashtirmoqda. Ushbu axborotlarni ijtimoiy tarmoq

foydalanuvchilarga uzatish jarayonida ular tomonidan internet orqali taqiy va ta‘qib qilish holatlari uchramoqda. Bu, ayniqsa, axborotlar izohlarida ko‘rinayotir. Izohlarda noma‘lum ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari turli haqoratli so‘zlar va tuhmat gaplar yozish orqali xotin-qizlarga ruhiy-psixologik bosim o‘tkazmoqda.

Ushbu holatga asosiy sabab xotin-qizlarning blogerlik faoliyati bilan shug‘ullanishida axborot turi va shaklini tanlashda milliy qadriyat va an‘analarga mos kelmaydigan, aholining ma‘naviy qarashlarini tahqirlovchi vositalardan foydalanish holatlarining ko‘pligidir.

Shularni inobatga olgan holda, mamlakatimizda xotin-qizlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishini yanada oshirish, chekka hududlardagi xotin-qizlarning ham axborot texnologiyalaridan faol foydalanishiga jalb qilish masalasiga katta ahamiyat qaratilayotgani jamiyatimizning nafaqat ijtimoiy taraqqiyotida, balki barcha sohalar rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, virtual makondagi xatarlar va axborot madaniyati bilan bog‘liq muammolarni inobatga olgan holda, davlat siyosati doirasida xotin-qizlarning AKTDan xavfsiz, samarali va mas‘uliyatli foydalanishini ta‘minlash dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Umuman olganda, yangi O‘zbekistonda xotin-qizlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan faol foydalanishini rivojlantirish masalasi global tendensiyalar va milliy taraqqiyot ustuvor yo‘nalishlari bilan to‘liq uyg‘unlashadi. BMT va boshqa xalqaro institutlar tomonidan ilgari surilayotgan raqamli inklyuziya tamoyillari mamlakatimizda ham izchil amalga oshirilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, yangilanayotgan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida xotin-qizlarni AKTDan faol foydalanishga jalb etish bo‘yicha yillik aniq ko‘rsatkichning belgilanishi strategiyaning amaliy va natijaga yo‘naltirilgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Akmal SAIDOV,
Inson huquqlari bo'yicha
O'zbekiston Respublikasi
Milliy markazi direktori,
akademik

Boshlanishi 1-betda

2025-yilda jahon hamjamiyati BMTning 80 yilligi tantanalari bilan bir qatorda inson huquqlari bo'yicha birinchi majburiy yuridik shartnoma – Irqiy kamitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyaning 60-yilligini, shuningdek, zamonaviy ijtimoiy va siyosiy hayotning gender mezonini boshlab bergan Ayollarga nisbatan Pekin platformasi va Harakatlar dasturining 30 yilligini nishonladi. Mamlakatimizda ushbu sanalarni nishonlash bo'yicha fuqarolik jamiyati institutlari va ta'lim muassasalarini keng jalb etgan holda qamrovli tadbirlar dasturlari amalga oshirildi.

Shuningdek, o'tgan yil inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi ko'plab mintaqaviy vositalarning yubiley sanalari, xususan, Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasining 75 yilligi, EXHT Xelsinki bitimining 50 yilligi, MDH Insonning asosiy huquqlari va erkinliklari to'g'risidagi konvensiyasining 30 yilligi nishonlandi. Ushbu hujjatlar ham inson huquqlarini himoya qilishning zamonaviy xalqaro tizimi uchun tayanch ustunlar hisoblanadi.

Qolaversa, zamonaviy xalqaro huquq asosini yaratgan Nyurnberg tribunali o'z ishini boshlagan sanaga 80-yil to'lgani ham e'tibordan chetda qolmadi. Hozirgi zamon inson huquqlari davri, shubhasiz, Nyurnberg jarayonidan boshlangan. Garchi XX asrda ko'plab xalqaro hujjatlar qabul qilingan bo'lsa-da, Nyurnbergdagi Harbiy tribunal inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi muhim voqea hisoblanadi.

Yangi O'zbekiston inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha mintaqaviy tuzilmalarida faol ishtirok etmoqda. 2025-yilda yangi tashkil etilgan MDHning Inson huquqlari bo'yicha komissiyasi raisi O'zbekistonga tashrif buyurdi. O'zbekiston vakili Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashining 51-sessiyasida IHTning Inson huquqlari bo'yicha mustaqil doimiy komissiyasi tarkibiga 2025-2028-yillarga mo'ljallangan davr uchun saylandi.

Bryusselda iyun oyida Adliya, ichki ishlar, inson huquqlari va ular bilan bog'liq masalalar bo'yicha "O'zbekiston – Yevropa Ittifoqi" kichik qo'mitasining 21-yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, sud-huquq tizimini isloh qilish, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, korrupsiyaga qarshi kurashish, gender tenglik masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Inson huquqlari — zamonaviy sivilizatsiya taraqqiyoti darajasini ko'rsatib turuvchi mezonidir. Afuski, dunyoda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar, geosiyosiy o'zgarishlar va qurolli mojarolar inson huquqlari masalalariga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Ma'lumki, Vena deklaratsiyasi va Inson huquqlari bo'yicha harakatlar dasturi har bir davlatga inson huquqlari bo'yicha milliy harakatlar rejalari qabul qilishni tavsiya etgan.

Bugungi kunda dunyoning 80 ta mamlakatida inson huquqlari sohasida 150 dan ortiq milliy reja (strategiya) qabul qilingan. Ular turli darajalarda: prezidentlar, parlamentlar, hukumatlar tomonidan tasdiqlangan, amal qilish muddati qisqa, o'rta yoki uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining bu boradagi tajribasi juda e'tiborga loyiq. Markaziy Osiyo mamlakatlari Konstitutsiyalarida "Davlat inson huquqlarini hurmat qiladi va ta'minlaydi" tamoyili aniq belgilab qo'yilgan. Qozog'istonda 2023-yilda Prezident tomonidan tasdiqlangan Inson huquqlari va qonun ustuvorligi sohasidagi uchinchi harakatlar rejasiga amalga oshirilmog'da. Qirg'iziston hukumati 2022-2024-yillar uchun Inson huquqlari bo'yicha harakatlar rejasini qabul qildi va amalga oshirdi. Tojikiston hukumati 2023-yilda Inson huquqlari bo'yicha milliy strategiyani qabul qildi. Turkmaniston Prezidenti tomonidan 2021-2025-yillarga mo'ljallangan Inson huquqlari bo'yicha milliy harakatlar rejasini tasdiqlandi.

Mamlakatimizda 2025-yilgi Davlat dasturi doirasida 2030-yilgacha mo'ljallangan Inson huquqlari bo'yicha yangi Milliy strategiya loyihasi ishlab chiqildi. Ushbu ikkinchi Milliy strategiya

loyihadini tayyorlashda ilg'or xalqaro tajriba, O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlarini, shuningdek, o'tgan davr mobaynida shakllangan milliy amaliyot inobatga olindi. Hujjatda O'zbekistonning milliy ma'ruzalarini ko'rib chiqish doirasida taqdim etilgan BMTning inson huquqlari bo'yicha organlari tavsiyalari ham o'z aksini topdi.

Konstitutsiyaviy vatanparvarlikni shakllantirish omili

Inson huquqlari sohasidagi Jahon ta'lim dasturi va Milliy ta'lim dasturini amalga oshirish doirasida inson huquqlari madaniyatini shakllantirish, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida inson huquqlari bo'yicha o'quv kurslarini joriy etish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmog'da.

Davlat organlari xodimlarining inson huquqlari, gender tenglik va qiynoqqa qarshi kurashish sohasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha o'quv kurslari o'tgan yil davomida muntazam tashkil etildi. Jumladan, Milliy markaz, Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlangan reja asosida Jizzax (24-25-fevral), Sirdaryo (26-27-fevral), Navoiy (22-23-may), Toshkent (3-4-iyul), Farg'ona va Andijon (15-16-sentabr) viloyatlarida "Qiynoqqa solishga qarshi kurashish: xalqaro amaliyot va milliy tajriba" mavzusida onlayn va oflayn formatda o'quv kurslari tashkil etildi.

Oliy sudda o'tgan yil 28-fevralda uy-joyga bo'lgan huquqni ta'minlash sohasida sud amaliyotini takomillashtirish, shu jumladan, majburiy ko'chirish bilan bog'liq jihatlariga bag'ishlangan davra suhbatii gbrid formatda bo'lib o'tdi.

Termiz shahrida 21-22-aprel va Farg'ona shahrida 24-25-aprel kunlari Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti tibbiyot xodimlari va Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi sud-tibbiy ekspertlari uchun "Istanbul protokoliga muvofiq qiynoqlar va shafqatsiz muomalalarni sud-tibbiy hujjatlashtirish" mavzusida ikki kunlik trening o'tkazildi.

Toshkent shahrida 2025-yil 29-apreldan – 2-maygacha "Inson huquqlariga rioya etish va uni himoya qilishning xalqaro standartlari: amaliyot va hisobot" mavzusida to'rt kunlik o'quv mashg'ulotlari bo'lib o'tdi. Milliy markaz tomonidan inson huquqlarini ta'minlash sohasida faoliyat yuritayotgan davlat organlari va idoralari mutaxassislari uchun o'tkazilgan mashg'ulotlarda asosiy e'tibor inson huquqlari sohasidagi xalqaro va milliy normalar, BMT mexanizmlari, hisobot berish jarayonlari, ta'lim va amaliy ko'nikmalarni mustahkamlashga qaratildi.



Inson huquqlari masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish va o'quv salohiyatini oshirish maqsadida Milliy markaz Favqulodda vaziyatlar, Ichki ishlar vazirliklari, Huquqni muhofaza qilish organlari akademiyalari, Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti hamda O'zbekiston Notarial palatasi bilan hamkorlik memorandumlarini imzoladi. 2025-yilda ayni memorandumlar doirasida faol hamkorlikda faoliyat yuritayotgan 50 dan ortiq xorijiy ekspert ushbu tadbirlarning faol ishtirokchisiga aylandi.

Inson huquqlari madaniyatini oshirish yo'lida

Mamlakatimizda inson huquqlari sohasida ta'lim, axborot tarqatish, huquqiy madaniyatni oshirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashda Milliy markazning Inson huquqlari bo'yicha axborot-kutubxona markazi — Inson huquqlari uyi muhim platforma vazifasini bajarmoqda. Xususan, Inson huquqlari uyida turli mavzularda 30 dan ortiq tadbir o'tkazildi.

2025-yilda Inson huquqlari uyi tomonidan qariyb 3 ming nusxa inson huquqlariga oid adabiyotlar kutubxonalar, turli idora va tashkilotlarga beg'araz taqdim etildi.



Shuningdek, Milliy markaz tomonidan 10 dan ziyod kitob chop etildi. Milliy markaz faoliyatini targ'ib etishga qaratilgan 6 mingta axborot rasmiy saytga joylashtirildi.

Xalqaro hamkorlik samaralari

O'tgan yili mamlakatimiz BMTning fuqarosizlikni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalarini bajarish borasida tarixiy yutuqqa erishdi. Gap shundaki, 1991-yildan 2016-yilgacha boro-yo'g'i 482 kishi O'zbekiston fuqaroligini olgan bo'lsa, 2017-yildan 2025-yilgacha 85 mingdan ortiq kishi O'zbekiston fuqaroligiga ega bo'ldi. Bu mamlakatimizdagi insonparvar siyosat jamiyatning hamma qatlamlarini qamrab olish va inson qadr-qimmatini tom ma'noda hurmat qilishga qaratilganini baralla namoyon etadi.

Inson huquqlari bo'yicha kengash va uning maxsus tartib-taomillari bilan faol hamkorlik davom etmoqda. O'zbekiston BMTning turli organlari tavsiyalari asosida yettita milliy harakat rejasini ishlab chiqdi va amalga oshirmog'da. Bular, jumladan, BMT Xavfsizlik kengashining Ayollar, tinchlik va xavfsizlik to'g'risidagi 1325-sonli rezolyutsiyasini amalga oshirish; ayollarga nisbatan kamситishlarga qarshi kurashish; iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar; nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari; Inson huquqlari bo'yicha oliy komissar tavsiyalarini amalga oshirish; terrorizmga qarshi kurashish va bola huquqlari bo'yicha rejalardir.

islohotlarni — beqiyos yangilanishlar deb ta'rifladi. O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashabbuslari asosida, xususan, BMT Bosh Assambleyasining 15 ta rezolyutsiyasi qabul qilingani e'tirof etildi.

Bu boradagi natijador qadamlar, o'z navbatida, mamlakatning xalqaro maydondagi obro'si tobora oshib borayotganini yaqqol ko'rsatmoqda. Ayniqsa, Xitoy Xalq Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi hamkorlikda ishlab chiqqan "Sivilizatsiyalararo muloqot xalqaro kuni" nomli rezolyutsiyaning BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilinganiga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston bilan Xitoyning inson huquqlari bo'yicha milliy institutlari o'rtasidagi ikki tomonlama aloqalar izchil rivojlanib borayotgani mamnuviyat bilan qayd etildi. Hamkorlikni yanada chuqurlashtirish maqsadida bir qator aniq rejarlar kelishib olindi.

Xuddi shu sanada Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpingning o'zbek tilida ilk bor nashr etilgan "Inson huquqlarini hurmat qilish va kafolatlash to'g'risida" nomli kitobi taqdimoti ham bo'lib o'tdi. Tadbir Milliy markaz tomonidan Xitoy Inson huquqlarini o'rganish bo'yicha jamiyati, XXR Adabiyotlarni xorijiy tillarda nashr etish va tarqatish ishlarini bo'yicha boshqarmasi, Xitoyning O'zbekistondagi elchixonasi hamkorligida tashkil etildi. Taqdimotda kitob Xitoyning inson huquqlarini himoya qilish masalalariga oid konseptual yondashuvlarini ochib beruvchi manba sifatida muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidlandi. Ushbu kitobning o'zbek tilida nashr etilishi ilmiy ma'rifat almashish, davlatlararo muloqotni chuqurlashtirish va gumanitar hamkorlikni kengaytirish uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochishi e'tirof etildi.

Shuningdek, o'tgan yili 30-iyulda Milliy markazda "Zamonaviy dunyoda inson huquqlarini himoya qilish: O'zbekiston va Rossiya tajribasi" mavzusida huquqiy kollokvium bo'lib o'tdi. Tadbirida Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi ijrosi doirasida erishilgan yutuqlar haqida so'z yuritildi. Inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi milliy tajriba, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatini yanada rivojlantirish istiqbollari, sohaga oid qonunchilikdagi yangiliklar va O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

Bundan tashqari, 2025-yil 12-sentabrda Milliy markazda Markaziy Osiyo mamlakatlari — Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston bola huquqlari bo'yicha vakillari — bolalar ombudsmanlari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Milliy markaz vakillari 2025-yilda ko'plab mamlakatlarda xizmat safarida bo'lib, muhim tadbirlarda ishtirok etdi. Xususan, 21-22-iyun kunlari Turkiyadagi Istanbul shahrida "Islom hamkorlik tashkiloti dunyo o'zgarishi sharoitida" shiori ostida o'tkazilgan Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) Tashqi ishlar vazirlari kengashining 51-sessiyasi shular sirasiga kiradi.

Tadbirida IHTga a'zo davlatlar tashqi ishlar vazirlari, IHT rahbariyati va tuzilmalari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot markazlari, diplomatik korpus vakillari ishtirok etdi. Sammit davomida IHT kun tartibidagi dolzarb masalalar muhokama qilindi, Istanbul deklaratsiyasi qabul qilindi.

Sessiyaning asosiy natijalaridan biri 2025–2028-yillarga mo'ljallangan muddatga IHT Inson huquqlari bo'yicha mustaqil doimiy komissiyasining to'g'iz nafar yangi a'zosi saylovi o'tkazilganidir. Ovoz berish natijalariga ko'ra, O'zbekiston vakili — Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktorining birinchi o'rinbosari, professor Mirzatillo Tillaboyev uch yil muddatga IHT Inson huquqlari bo'yicha mustaqil doimiy komissiyasiga a'zo etib saylandi.

Ushbu voqea O'zbekistonning inson huquqlari sohasidagi xalqaro diplomatiyada egallagan mavqei tobora o'sib borayotganini yana bir bor tasdiqlaydi va mamlakatimizning ko'p tomonlama hamkorlik, islomiy birdamlik va

asosiy erkinliklarni himoya qilish prinsiplariga sodiqligini namoyish etadi. Bundan tashqari, bu natija O'zbekistonning inson huquqlari bo'yicha xalqaro institutlar bilan o'zaro hamkorligidagi muhim bosqich bo'lib, IHTga a'zo davlatlarning mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga ishonchidan dalolat beradi.

Milliy markaz 2025-yilda xalqaro va xorijiy manbalarda inson huquqlari sohasida O'zbekistonga doir e'lon qilingan ma'lumot va hisobotlarga munosabat bildirish amaliyotini davom ettirdi. Jumladan, 3 ta manba — AQSHning Xalqaro diniy erkinliklar bo'yicha komissiyasi (USCIRF), "Human Rights Watch" xalqaro nohukumat tashkiloti va Yevropa Ittifoqi Komissiyasi hisobotlarida bayon etilgan masalalar yuzasidan tegishli idoralar bilan hamkorlikda asoslantirilgan sharh va ma'lumotlar tayyorlandi.

Milliy markazga 2025-yilda BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashi maxsus ma'ruzachilarning hamda yakka tartibdagi murojaatlar bo'yicha 74 ta hujjat kelib tushdi. Shulardan 50 ta hujjat bo'yicha Maxsus ma'ruzachilar hamda yakka tartibdagi murojaatlarda keltirilgan masalalar yuzasidan vazirlik va idoralar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida javob xati tayyorlanib, tegishli tartibda taqdim etildi.

2025-yil 27-fevralda Milliy markaz va Vengriyaning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) o'rtasida o'zaro anghluv memorandumini imzolandi. Ushbu hujjat inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi ikki tomonlama hamkorlik uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratib, shu sohada qo'shma loyiha va dasturlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Bundan tashqari, Milliy markaz bilan Taraqqiyot va odil sudlov xalqaro markazi (CDJI) o'rtasida hamkorlik memorandumini imzolandi. Ushbu Memorandum inson huquqlari sohasida ixtisoslashayotgan magistratura va doktorantura talabalari orasida tadqiqot hamda tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, adolat va inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi mutaxassislarning kasbiy salohiyatini oshirish, inson huquqlari bo'yicha Samarqand forumini qo'llab-quvvatlash, inson huquqlarining dolzarb masalalari yuzasidan tahilliy va uslubiy materiallar tayyorlashda hamkorlik qilish, jazoni ijro etishi tizimini rivojlantirishda xalqaro standartlarni targ'ib qilishga qaratilgan.

Monitoring va jamoatchilik nazorati

Milliy markaz huzurida Jamoatchilik kengashi ish olib bormog'da. Bu boradagi faoliyatni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni katta ahamiyat kasb etdi.

Yangi O'zbekistonda inson huquqlari holati, shu jumladan, inson huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlar bajarilishini monitoring qilishda jamoatchilik nazorati rolini oshirish maqsadida davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Bu borada ham BMTning inson huquqlari bo'yicha ustav organlari va shartnomaviy qo'mitalari qarorlari ijrosini ta'minlash yuzasidan doimiy monitoring va maslahatlashuvlar amalga oshirilmog'da. Ayrim misollarga to'xtalamiz.

Birinchi misol. 2025-yil 12–13-may kunlari "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasida Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt qoidalarini amalga oshirish bo'yicha milliy harakatlar rejasini"da belgilangan vazifaga muvofiq, Buxoro viloyatidagi hududlarda yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamiyat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartibiga rioya qilish hamda aholining yetarli uy-joyga ega bo'lish huquqi

masalalari bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar yuzasidan jamoatchilik monitoringi o'tkazildi. Tadbir Milliy markaz tashabbusi bilan tashkil etildi.

Tuzilgan ishchi guruh tomonidan "Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-taomillari to'g'risida"gi qonun ijrosi va fuqarolarga to'lab berilgan kompensatsiyalarga oid tegishli hujjatlar o'rganildi. Shuningdek, fuqarolarni majburiy ko'chirishdan himoyalash va ularning munosib uy-joyga ega bo'lish huquqini ta'minlash holatini o'rganish maqsadida hududlarda monitoring ishlari olib borildi.

Ikkinchi misol. Shundan sal keyin, 23-mayda Xotin-qizlarni kamситishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya qoidalarini bajarilishi yuzasidan Milliy markaz Oila va xotin-qizlar qo'mitasi bilan hamkorlikda Navoiy shahridagi O'zbekiston va Bunyodkor mahallalarida aholi o'rtasida oilada maishiy zo'ravonlik holatlari bo'yicha xabarodirlik darajasini o'rganish maqsadida jamoatchilik monitoringini o'tkazdi.

Bundan maqsad – O'zbekistonda xotin-qizlar huquqlarining amalga oshirilishidagi muammolarni aniqlash, ularning odil sudlovdan foydalanishi hamda xotin-qizlar huquqlarni himoya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining samaradorligi darajasini o'rganish. So'rovnomada fuqarolarning ayni masalaga yondashuvi tahlil etildi hamda bu boradagi muammolarni bartaraf etish yuzasidan taklif va mulohazalari o'rganildi.

Uchinchi misol. O'tgan yil 17-18-sentabr kunlari xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy hayotda to'laonli ishtirokini ta'minlash va oiladagi maishiy zo'ravonlikka qarshi kurashish holatini o'rganish maqsadida Farg'ona shahridagi "Itlifot" va "Shodiyona" hamda Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tumanidagi "Yuksalish" va Abdurahmon Jomiy nomidagi mahalla fuqarolar yig'inlarida keng qamrovli monitoring tadbirlari amalga oshirildi.

Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasi qabul qilinganining 30 yilligi doirasida amalga oshirilgan tadbirda mamlakatimizda xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish, maishiy zo'ravonlikka qarshi huquqiy himoya va yordam mexanizmlarini baholash masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Monitoringning asosiy maqsadi — jamiyat va oilada xotin-qizlarni kamситishning barcha shakllariga qarshi kurashishda xalqaro me'yorlarga asoslangan Xotin-qizlarni kamситishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya (CEDAW) talablari bajarilishi usidan nazoratni mustahkamlashdir.

Milliy va xalqaro maslahatlashuvlar

Milliy markaz faoliyatida milliy va xalqaro hamkorlar bilan maslahatlashuvlar o'tkazish tajribasi alohida r'in tutadi. Bunga yaqqol misol sifatida 2025-yil 6-oktabrda Nukus shahrida bo'lib o'tgan BMT Xavfsizlik Kengashining "Ayollar, tinchlik va xavfsizlik" to'g'risidagi 1325-sonli rezolyutsiyasi qoidalarini amalga oshirish bo'yicha 2026-2030-yillarga mo'ljallangan Milliy harakatlar rejasini loyihasi muhokamasiga bag'ishlangan milliy maslahatlashuvlarni keltirish mumkin.

Muhokamalarda 2022-2025-yillarda amalga oshirilgan Milliy harakatlar rejasini doirasida erishilgan yutuqlar sarhisob qilinib, yangi davr uchun ustuvor vazifalar belgilandi. Yangi hujjat ayollarning tinchlik jarayonlarida faol ishtirokini ta'minlash, ularning xavfsizligi va huquqlarini himoya qilish, shuningdek, gender tenglikni chuqurlashtirishga qaratilgan.

Shuningdek, 2025-yil 3-iyulda Milliy markaz tomonidan "BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasini O'zbekiston Respublikasida amalga oshirish bo'yicha 2026–2030-yillarga mo'ljallangan Milliy harakatlar rejasini" loyihasini ishlab chiqishga bag'ishlangan seminar o'tkazildi.

Bundan tashqari, inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlarini amalga oshirish doirasida 2025-yil 4-5-sentabr kunlari BMT shartnomaviy organlari va alohida holatlar bo'yicha maxsus tartib-qoidalarini tavsiyalarini joriy etish masalalariga bag'ishlangan ikki kunlik seminar bo'lib o'tdi. Tadbir Milliy markaz tomonidan BMT Inson huquqlari bo'yicha oliy komissari Boshqarmasining Markaziy Osiyo mintaqaviy bo'linmasi va Xalqaro huquqshunolar komissiyasi bilan hamkorlikda tashkil etildi.

Konstitutsiyaviy sud va Oliy sud sudyalari, Adliya vazirligi, Bosh prokuratura, Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi, Ombudsman instituti, Advokatlar palatasi, "Taraqqiyot strategiyasi" markazi, ilmiy doiralari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirokida o'tkazilgan tadbir doirasida Prezidentimizning Jenevada bo'lib o'tgan BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashi 46-sessiyasidagi nutqida bayon etilgan pozitsiyasiga alohida urg'u berildi.

Seminarda BMT shartnomaviy organlari mulohazalarining yuridik maqomi va huquqiy tabiati, ularni milliy huquqiy tizimga implementatsiya qilish yo'llari, shuningdek, tegishli xalqaro majburiyatlarini bajarishda O'zbekiston oldidagi amaliy masalalar va imkoniyatlar batafsil ko'rib chiqildi. Muhokamalar yakunida bir qator amaliy tavsiyalar, jumladan, qisqa va o'rta muddatli istiqbolga mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlarni belgilash bo'yicha takliflar tayyorlandi.

Xulosa qilib aytganda, 2025-yilda mamlakatimiz, mintaqamiz, butun sayyoramiz miqyosida tinchlikni saqlash, o'zaro ishonchni mustahkamlash, ma'naviyat va ma'rifati rivojlantirish, ekologiyani muhofaza qilish, shuningdek, ilg'or innovatsiyalar, zamonaviy texnologiyalar va "barcha iqtisodiyot"ni chuqur taqbiq etish orqali qarashlar taraqqiyotini ta'minlash yo'lida tom ma'noda bemislar samarlarga erishildi. Ushbu natijalarning barchasi mukarram zot — inson qadriini ulug'lashga qaratilgani bilan nihoyatda ahamiyatlidir.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

19-yanvar – Mahmudxoja Behbudiy tug'ilgan kun

SUN'IY AQL:

JADID QALBIDAN CHIQQAN

ILK HAYQIRIQ

Yurtimiz taraqqiyotining so'nggi to'qqiz yillik davrida jadidlarga munosabat davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ular faoliyatini o'rganish, nomlarini tiklash, ishlarini davom ettirish hamda armonlarini ro'yobga chiqarish borasida qator salmoqli vazifalar bajarildi. Xususan, Prezidentimizning "Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atqoli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxoja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori bu boradagi sa'y-harakatlarni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqdi.



Halim SAIDOV,
O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti professori, filologiya fanlari doktori

hurmatidan bizga basirat ber! Eshitar quloq, anglar aql ber! Oh, u ezgular qanday ekanlar? Biz na holdamiz? Oh, qadar anbiyo, avliyo, mashohirlar kelib, biz — insonlar uchun shariatlar, tariqatlar, ma'rifatlar va'z etib, bizni haqiqatga da'vat etib ekanlar. Biz, gumrohlari yo'ldan chiqib, hazizi nafsoniyatga kulliyani (butkul) cho'mubmiz. Bukun o'zlarini madaniyat va insoniyatni(ng) eng oliy

tabaqasida deb yolg'ondan da'vo etadigan insonlar vahshoniyatni(ng) eng asfal (tuban) darajasida qo'l va ayoq urarlar. Milliyonlar ila bani odamning boisi kulfati va musibati bo'lurlar.

Ey Oллоhi azim ush-sha'n! Bu magar saning g'azabingmidur? Afv et, biz, insonlarni hidoyat et! Yer yuzinda sulh va salohi umumiy ato ayla, insonlarga insoniyat ber! Zolimlarga qahr et, mahv bo'lsun zulm, yashasin adolat va haqqoniyat, omin..."

Bu duo — munojot shaklidagi matn Mahmudxoja Behbudiy tafakkurining eng teran qirralarini ochib beradi. U faqat diniy iltijo emas, balki ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy bayonotdir. Uning bugungi ahamiyatini bir necha rakursda tahlil qilish mumkin.

Behbudiy Yaratgandan mol-davlat yoki kuch-qudrat emas, balki basirat, ya'ni haqni ko'ra bilish qobiliyatini ato etishini so'raydi. Bu juda muhim jihat. Allomaning fikricha, insonning asosiy fojiasi jaholat emas, balki anglamay turib da'vo qilishi, ya'ni ko'zi bo'la turib ko'rmasligidir. Hozir ham shunday — axborot ko'p, lekin uning mohiyatini anglaydiganlar kam. Shu ma'noda, Behbudiyning "eshitar quloq, anglar aql" haqidagi tilagi nafaqat XX, hatto XXI asrda ham insoniyat uchun eng dolzarb ahamiyatga ega.

Jadidlar yo'lbo'shchisining "o'zlarini madaniyat va insoniyatni(ng) eng oliy



BEHBUDIY YARATGANDAN MOL-DAVLAT YOKI KUCH-QUDRAT EMAS, BALKI BASIRAT, YA'NI HAQNI KO'RA BILISH QOBILIYATINI ATO ETISHINI SO'RAYDI.

tabaqasida deb yolg'ondan da'vo etadigan insonlar..." degan malomati bugun yanada og'ir yangraydi. Zamonaviy qurollar, texnologiyalar, millatchilik, soxta demokratiya shiorlari ortida urushlar, qing'inlar, iqtisodiy zulm yashirib turibdi.

Demak, Behbudiy madaniyatni axloqdan uzilgan taraqqiyot sifatida ko'radi va buni insoniyat uchun eng xavfli holat deb baholaydi. Bugungi global dunyo tartibi ham aynan shu muammo bilan yuzma-yuz turibdi. Uning "hazizi nafsoniyatga kulliyani cho'mubmiz" degan fikri aybni, avvalo, o'zimizdan qidirishga da'vat. Shuningdek, "Dushmani la'natlashdan oldin jamiyatningni uyg'ot, muammolarga yechim top" qabilida bildirilgan jadidlarga xos pozitsiyadir. Buning uchun vijdon amriga bo'yusub, adolatni birinchi o'ringa qo'yish kerak. Shu jihatdan Behbudiy insonni tashqi dushmanidan oldin ichki dushmanga — nafsga qarshi kurashga chorlaydi.

Bugungi yoshlar sun'iy aql yordamida yangiliklar yaratishga harakat qilmoqda. Biz esa sun'iy idrokka jadidlikning umumiy mafkurasida Behbudiydan olingan mazkur fikr (matn)ning o'mini ochib berish topshirig'ini berdik. Ajib javoblar olindi. Qisqartirib keltiramiz: "Bu fikrga jadidlik mafkurasida markaziy ruhiy-g'oyaviy hujjat sifatida qaralishi mumkin. U jadidlikning nima ekanini emas, balki nega paydo bo'lganini eng ochiq va og'riqli tarzda ifoda qiladi. Quyida fikrning jadidlik umumiy mafkurasidagi o'mini aniq rakurslarda ko'rib chiqamiz.

Birinchidan, jadidlik, avvalo, ma'naviy isyon. Uni ko'pincha yangi maktab, yangi alifbo, matbuot, teatr doirasida cheklab qo'yishadi. Aslida, bular sabab emas, vosita. Ushbu matnda jadidlik — ma'naviy isyon, insonning jaholatga, sukutga, ko'nikilgan zulmga qarshi ichidan ko'tarilgan faryodi ekani yaqqol seziladi.

Behbudiy munojoti — jadid qalbidan chiqqan ilk hayqiriq.

Ikkinchidan, jadid mafkurasida din sukut emas, harakatni bildiradi. Bunda jadidlarning dinga munosabati juda aniq-tiniq ochib berilgan. Jadidlar dini inkor qilmaydi, lekin uni muzlatib qo'yishga ham qarshi. Behbudiyning iltijosida shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat zanjiri keltiriladi. Bu tasnif jadidlikdagi islomiy modernizm asosidir.

Uchinchidan, "aybni o'zimizdan qidirish" tushunchasi — jadid tafakkurining mehvari. Matnda "biz, gumrohlari yo'ldan chiqib..." degan jumla bor. Bu juda muhim. Jadidlik hamma balo sababini faqat mustamlakada ko'rmaydi, balki ichki jaholat, qo'rquv va nafsni asosiy fojia deb biladi. Shu jihatdan ham bu matn jadid mafkurasida o'zini o'zi tanqid qilish madaniyatini kuchaytiradi.

To'rtinchidan, jadidlikning global qarashi masalasi. Behbudiy fikri faqat Turkiston haqida emas. U dunyo bo'lib olinayotgani, madaniyat niqobidagi vahshiylik, millionlab insonlar fojiasi haqida so'zlaydi.

Demak, jadidlik faqat mahalliy islohot emas, balki umuminsoniy adolat g'oyasiga bog'liq harakatdir. Ushbu matn jadidlarning dunyoqarashini global axloqiy pozitsiya darajasiga olib chiqadi.

Beshinchidan, bu matnda jadidlikning vijdoni aks etgan. Jadidlikni yaxlit tizim sifatida tasavvur qilsak, maktab — uning aqli, matbuot — tili, teatr — ko'zi, siyosiy faollik — qo'li bo'lsa, bu matn vijdonidir. Unda yig'i va mung bor, ayblov bor, iltijo bor, umid bor. Jadidlik aynan shu ruhda harakatda bo'lgan.

Yakuniy xulosa shuki, bu matn jadidlik mafkurasida dastur emas, qonun emas, lekin ruhiy asos, axloqiy o'zak, harakarga keltiruvchi olovdir. Agar jadidlikni tushunmoqchi bo'lsak, uni shu munojotni tahlil qilishdan boshlash kerak. Chunki jadidlik, avvalo, Yaratgan oldida ham, tarix oldida ham javobgarlik hissidir".

Ba'zi kamchiliklarni hisobga olmaganda, sun'iy aql jadidlik g'oyalari haqida mantiqli va juda ta'sirli xulosa bermoqda. Ularni boyitish uchun bu boradagi yangi tadqiqotlarni tarmoqlarga muntazam kiritib borishimiz navbatdagi vazifalardan.

Munosabat

Prezidentimizning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida o'tgan yilgi natijalar xolisona tahlil qilinib, mamlakatimizning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishi uchun muhim vazifalar belgilab berildi. Hujjat mazmuni tarbiyalan mahalladan boshlanishidan iqtisodiyot, ta'lim sifatini oshirish, ilm-fan, madaniyat va kosmik tadqiqotlarga cha bo'lgan masalalarni qamrab olgan. Shu o'rinda maktab kutubxonalarning har yili 10 million dona badiiy adabiyot bilan ta'minlanishi hamda ilk o'zbek fazogirining kosmosga uchirilishi mantiqiy bog'liqday tuyuldi...

Keyingi yillarda kitobxonlikka juda katta e'tibor qaratilyapti. Mutolaani targ'ib etuvchi turli tanlovlar, ma'naviy-ma'rifiy ko'rsatuvlar, kitob festivallari hamda adabiy uchrashuvlar tashkil qilinmoqda. "Kitobxon-shou", "Eng faol kitobxon", "Yosh kitobxon", "Kitobsevar oila" kabi tanlovlar orqali kitob

mutolaasiga qiziqish mamlakat miqyosida kengayib, yanada mustahkamlanmoqda. Turli ko'rsatuv va radioeshittirishlar orqali adabiyot, mutafakkirlar hayoti va ijodi haqida berilayotgan ma'lumot va eslatmalar ham keng jamoatchilik, xususan, yoshlarning dunyoqarashini boyitishga hissa qo'shyapti.



Mahmuda ISABOYEVA,
jurnalist

MAKTABLARGA 10 MILLION KITOB

Shuningdek, nashriyotlar va kitob do'konlariga berilayotgan imtiyozlar, zamonaviy bosmaxonalar tashkil etilishi, elektron kitoblar va audiokitoblar tayyorlash tizimi rivoji ham kitob targ'ibotini kuchaytirdi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar yordamida kitobga oson yetib borish imkoniyati yaratilgani nodir yoki qimmatbaho kitoblarning ham olib o'qilishini osonlashtirdi. Bu kitobxonlik targ'iboti mamlakatimizning chekka hududlarida ham keng quloqch yoyganini bildiradi.

Eng muhimi, bu ishlar yoshlarni ma'naviy barkamol, mustaqil fikrlaydigan, vatanparvar va bilimli insonlar etib tarbiyalashga qaratilgan. Chunki kitob inson tafakkurini charxlaydigan, ezgulikka yetaklaydigan eng ishonchli manba. Shu bois, kitobxonlikni rivojlantirish nafaqat madaniy, balki strategik ahamiyatga ega.

Hozir mamlakatimizning har bir shahri va tumanida axborot-kutubxona markazlari samarali faoliyat yuritmoqda. Ular aholining axborotga ehtiyojini ta'minlash, fuqarolarga tekzor, ishonchli va zamonaviy axborot manbalarini taqdim etishda muhim o'rin tutadi. Kutubxonalar nafaqat an'anaviy kitoblar orqali, balki elektron resurslar, raqamli ma'lumotlar bazalari, internet



xizmatlari orqali ham kitobxonlarga keng imkoniyat yaratyapti.

Albatta, soha rivojida kadrlar masalasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bugun

kutubxonachilikni zamon talablariga mos ravishda rivojlantirish uchun malakali, bilimli va tashabbuskor kadrlar tayyorlash ustuvor vazifalardan. Prezidentimizning 2019-

yil 7-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarorida ham bu masala alohida qayd etilgan. Uning ijrosi doirasida oliy ma'lumotli, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallagan mutaxassislar tayyorlanib, soha taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor qo'yilmoqda.

Dunyoning qiyofasi o'zgardi. Aholiga qulaylik yaratish uchun hamma jabha raqamlashtirila boshladi. Demak, ushbu sohaga ham innovatsion fikrlaydigan, tahlil qila oladigan, axborot bilan ishlash madaniyatiga ega, zamonaviy xizmat turlari va ilg'or tajribalardan xabardor yangi kadrlar kerak. Bu esa kutubxonachilik tizimining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishi, aholiga ko'rsatilayotgan axborot xizmatlari sifatining oshishiga olib keladi.

Gapimni kutubxonalariga yetkazish rejalashtirilgan 10 million kitob va birinchi o'zbek kosmonavtini kosmosga yuborish uchun tayyorgarlik ko'rilayotganidan boshlagan edim. Nazarimda, kitob va kitobxonlikka e'tibor bilan kosmosga uchish o'zaro bog'liq. Mamlakatimizda kitob targ'iboti hozirgiday davom etar ekan, biz kosmosga ko'tarilishga qolmay, Mirzo Ulug'bek bobomiz boshlab bergan kosmik tadqiqotlarni davom ettiramiz hamda bu borada olamshumul kashfiyotlar qilamiz.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DM

МУАССИС:
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-146.
32015 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Bahor Xidirova
Musahhih: Akbar Qarshiyev
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy